

PULNING VAQT BO'YICHA QIYMATI

Qahramonova Xusnora Asad qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universteti talabasi

Annotatsiya: Pulning vaqt bo'yicha qiymati haqida ma'lumotlar va tushunchalar mavjud. Pul mablag'laridan foydalanishda yana bir yangi xususiyat-pulning vaqtdagi qiymatini mavjudligini va ulardan foydalanishda bu xususiyatlarni inobatga olishgina yuqori samara berishini ko'rsatib turibdi.

Kalit so'zlari: Moliyaviy resurslarni vaqtdagi qiymati haqida tushunchalar, oddiy va murakkab foizlar haqida ma'lumotlar, pul oqimlarining kelgusi qiymati, pul oqimlarning joriy qiymati, annuitetning joriy va kelgusi qiymati.

Kirish: Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul mablag'lari to'xtovsiz harakatda bo'ladi, tovarlar va xizmatlar ayirbosh qilish jarayonida resurslar uchun to'lovlarni amalga oshirishda, ish haqi hamda boshqa majburiyatlarni to'lashda pul qo'ldan qo'lga o'tib, aylanib turadi. Pulning o'z vazifalarini bajarish jarayonidagi bu to'xtovsiz harakati pul muomalasi deyiladi. Jahonda tarixan shakllangan hamda har bir mamlakat tomonidan qonuniy ravishda mustahkamlab qo'yilgan pul muomalasining turli tizimlari amal qiladi. Mamlakat pul tizimimng muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat.

- 1) milliy pul birligi (so'm, dollar, iena, funt sterling, inarka va h.k.);
- 2) naqd pul muomalasida qonuniy to'lov vositasi sifatida amal qiluvchi qog'oz, tanga va kredit pullar tizimi;
- 3) pul emissiyasi, ya'ni belgilangan qonuniy tartibda pulni muomalaga chiqarish tizimi;
- 4) pul muomalasini tartibga soluvchi davlat idoralari.

Pul muomalasi o'ziga xos qonunlarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Uning qonunlaridan eng muhimi muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va shunga muvofiq muomalaga pul chiqarishdir.

Mazkur holatlarni hisobga olganda, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi: $P_m = (T_b - X_k + X_t - O'(h-k)) / A$, bunda:

P_m - muayyan davrda muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori;

T_b - sotilishi lozim bo'lgan tovarlar summasi (tovarlar miqdori x narxi);

X_k — kreditga sotilgan tovarlar summasi;

X_t — to'lash muddati kelgan tovarlar va xizmatlar hamda boshqa to'lovlar summasi;

$O'(h-k)$ — naqd pulsiz o'zaro hisob-kitoblar;

A_t — pulning aylanish tezligi.

Pulning qiymati - sarmoyaning egasiga doimiy ravishda daromad keltirishi kerakligi haqidagi tasdiqqa asoslangan iqtisodiy tushunchadir. Shuning uchun, bugungi kunda pulning qiymati uzoq kelajakda bo'lishidan ko'ra ancha yuqori bo'ladi. Ushbu tushunchaning "otasi" 1202 yilda ushbu kontseptsiyani qayta ishlab chiqadigan Leonardo Fibonacci deb hisoblanishi mumkin. Biroq, O'rta asrlarda yashagan olim, tashqi omillar ta'siri ostida veksellar qiymatining pastligi ehtimolini inobatga olmadi, chunki uning davrida kichik shaharlar uchun faqat qimmatbaho metallar va mis pullardan iborat tanga mavjud edi. Va moliya nazariyasining asosiy kontseptsiyasi bo'lgan vaqtdagi pulning qiymati ikki asosiy omilga bog'liq: xavf va inflyatsiya.

Pulning vaqt qiymati bugungi kunda barcha zamonaviy davlatlarning iqtisodchilari foydalanadigan ko'rsatkich bo'lib, bu ayniqsa kredit dasturlarini

ishlab chiqishda aniq ko'rinib turibdi. Fuqarolar yoki tadbirkorlar bankka depozit qo'yganda, ularning har biri pul topish va manfaatdorlik ko'rinishida daromad olishni istaydi. Shuning uchun moliyaviy operatsiyalarni bajarishda vaqt faktorini hisobga olish kerak va uzoq muddatli operatsiyalarni tahlil qilishda turli davrlar bilan bog'liq miqdorlarni sarhisob qilish noto'g'ridir.

Shunday qilib, moliyaviy boshqaruvda, turli muddatlarda pul qiymatlari bilan ishlashni amalga oshirayotganda, bu miqdor birinchi marta bir muddatga qisqartiriladi. Buning uchun barcha to'lovlar oqimi hisoblash stavkasi bo'yicha qayta hisoblab chiqilishi kerak, ya'ni kelajakdagi daromadlarni ma'lum miqdorda joriy qiymatdan hisoblash uchun foydalaniladigan foiz. Inflatsiya bilan bir qatorda, ushbu indikator depozitor bankning jamg'armalaridan foydalanishni istagan daromadlilik darajasini ham o'z ichiga oladi.

Moliya sohasida, pul summasi majburiy ravishda qarz yoki depozit shartnomasini tuzish vaqtida hisoblab chiqiladi, chunki hujjat foiz stavkasini belgilaydi.

Asosiy qism: Vaqt oralig'ida pul qiymati (pulning davriy qiymati)ni va diskontlangan pul oqimlari tahlilini o'rganishni murakkab foizlar tushunchasidan boshlaymiz. Murakkab foizlarni hisoblab chiqarish yordamida pullarning keltirilgan, yoki boshqacha qilib aytganda, joriy qiymatdan (present value) (PV) bo'lajak qiymatga (future value) (FV) o'tish jarayoni sodir etiladi. Bo'lajak qiymat – bu ma'lum sanaga kelib, murakkab foizlar yozilishi (hisoblanishi)ni inobatga olgan holda investitsiya qilingan pullar inflyatsiyani inobatga olgan holda teng bo'ladigan qiymat.

Qiymat — sotib olish mumkin bo'lgan tovarlar yoki xizmatlar xaridorlari va sotuvchilari kelishib olishlari ehtimoli yuqori bo'lgan narxga tegishli iqtisodiy tushuncha. Qiymat bu fakt emas, balki aniq vaqtda aniq tovarlar va xizmatlarning

tanlangan qiymat talqiniga muvofiq ehtimol qilinadigan va hisoblab chiqiladigan kattalik. Qiymatning iqtisodiy tushunchasi baholash sanasida ushbu tovarlar egasi bo'lgan yoki ushbu xizmatlarning foydalanuvchilari oladigan foydaga bozorning qarashini aks ettiradi.

Foiz stavkasi qanchalik yuqori, pul qo'yiladigan muddat qanchalik uzoq bo'lsa, bo'lajak qiymat koeffitsienti shuncha katta bo'ladi.

Quyida turli foiz stavkalari va turli omonat muddati uchun ushbu o'zaro aloqadorlik ko'rsatilgan.

Kredit bo'sh turgan pul mablag'larini ssuda fondi shaklida to'plash va ularni pulga muhtoj bo'lib turgan huquqiy hamda jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma'lum muddatga, foiz to'lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

Kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalari, odatda, yillik foiz stavkasi, yoki kreditlar va omonatlar bo'yicha foiz stavkalari, odatda, yillik foiz stavkasi ko'rinishida ma'lum chastota bilan hisoblanadi, masalan, har oy. Hisoblash chastotasi turlicha bo'lishi mumkin, shunday ekan foiz stavkalarini taqqoslash usulini bilish juda muhim. Bu foizlar bir yilda bir marta hisoblanganda foiz stavkasiga ekvivalent samarali yillik foiz stavkasini hisoblab chiqish orqali bajariladi.

Kredit munosabatlarining obyekti jamiyatda vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridir. Takror ishlab chiqarish jarayonida tovarlar, iqtisodiy resurslar va pul mablag'larining doiraviy aylanishi kredit munosabatlarining mavjud bo'lishini taqozo qiladi.

Takror ishlab chiqarish jarayonida vaqtincha bo'sh pul resurslari hosil bo'lishi bilan bir vaqtda, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari va sohalarida qo'shimcha pul mablag'iga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Pul oqimlarini tavsiflashda birinchi qadam, vaqt oralig'ini tuzish bo'lib, pul oqimlarining vaqtlarini ko'rsatuvchi to'g'ri chiziqdan iborat bo'ladi. Vaqt oralig'i chizmasi vaqt va pul oqimlarini aks ettiradi: qabul qilingan va ishlatilgan summalar birgalikda, shuningdek, ishlab topilgan foiz stavkalar ham. Vaqt oralig'i chiziqlari moliyaviy tahlilchilar tomonidan moliyaviy muammolarni yechishda dastlabki qadam hisoblanadi. Vaqt chizig'ida o'lchov birligi vaqt davrlari bo'ladi odatda yillarda o'lchanadi yoki oy, kun yoki boshqa vaqt birligida ham o'lchanishi mumkin. Ammo hozirgi misol uchun pul oqimlari yillik bo'ladi deb faraz qilamiz. 0 va 1 oralig'idagi masofa birinchi yil so'ngini bildiradi. Shunday qilib, 0 davri hozirni bildiradi, 1 davr esa birinchi yil ohirini anglatadi yoki yoki ikkinchi yil boshlanishini ko'rsatadi. (Siz buni oddiygina birinchi yilning ohirida yoki ikkinchi yilning boshida bo'lishingizni tasavvur qilishingiz mumkin.) Bizning misolda 10%ga teng bo'lgan foiz stavka vaqt chizig'idan yuqorida. Ko'pchilik biznes investitsiyalari pulni bugun investitsiyalashga qaratiladi. So'ng kelgusi yillarda investitsiya biznesga pul oqimlarini qaytaradi. Investitsiyani baholash uchun hozir talab etilgan summa va kelgusi davrda qaytadigan summani bugungi dollar kelgusi dollardan qadrliroq ekanligini hisobga olgan holda taqqoslash talab etiladi. Vaqt chiziqlari pulning vaqt qiymatini hisoblashni soddalashtiradi, faqatgina boshlang'ich foydalanuvchilar emas, tajribali moliyaviy tahlilchilar ham uning foydalanuvchilari hisoblanadi. Haqiqatda, siz ishlayotgan muammo qanchalik murakkab bo'lmasin, vaqt chizig'i uni tasvirlash va aynan nima qilinishi kerakligini tushunishga imkon yaratadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga kelishini yoritishda asosiy e'tibor, uning qiymat shaklining rivojlanish evolyutsiyasiga qaratiladi. Chunki, pulning

vujudga kelishida uning qiymat shakllari juda muhim o'rin tutadi. Pulning qiymat shakllari, asosan, beshta ko'rinishdan iboratligi e'tirof etilib, ular quyidagilardan iborat:

1. Qiymatning oddiy yoki tasodifiy shakli: Qiymatning ushbu shakli natural xo'jalik tuzumiga xos bo'lib, mahsulotlarning ortiqchaligi vaqti - vaqti bilan vujudga kelgan sharoitda amal qilgan. Qiymatning oddiy shaklida ishlab chiqarish hajmining pastligi, yaratuvchi va oluvchining manfaatlari doimo ham bir - biriga mos kelmagan ayirboshlash jarayonida ma'lum tovarlarga ishtirok etgan. Ushbu davrda odamlar o'rtasida vujudga kelgan ayirboshlash munosabatlarning vujudga kelishiga ortiqcha mahsulotni buzilmasligi va turib qolmasligining oldini olishga bo'lgan ehtiyoj turtki bo'lgan. Bu Tovar ishlab chiqarishning dastlabki davriga to'g'ri kelib tovarlar pulsiz bir- biriga bevosita ayirboshlangan. Bunda mahsulot ayirboshlash uchun ishlab chiqarilmagan, lekin uning ortiqchasi tasodifiy shakilda ayirboshlangan. Tasodifiy ayirboshlash mehnat mahsulotining tovarga aylanganligini ifodalaydi. Ayirboshlash natijasida tovar mahsuloti o'ziga teng qiymatli ekvivalent mahsulotga ayirboshlanadi. Ayirboshlash jarayonida iste'molni qondirish birinchi darajali masala, tovarlar qiymatini taqqoslash esa ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan. Masalan: Bir bolta = 20 kg don.

2. Qiymatning to'la yoki kengaytirilgan shakli. Qiymatning kengaytirilgan shakli jarniyatda mehnat taqsimotining vujudga kelish davri bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu davrda, kishilar o'rtasida ayirboshlash munosabatlari rivojlandi. Endi kishilar mahsulotning asosiy qismini ayirboshlash uchun ishlab chiqara boshladi. Natijada, ishlab chiqarish salmog'i ortib bordi, mahsulotlar tez - tez tovar sifatida ayirboshlash jarayonida ishtirok eta boshladi. Bitta tovar bir necha tovarga ayirboshlanadigan bo'ldi. Ayirboshlash jarayonining vujudga kelishida, tomonlarning manfaatlari o'zaro mos kelishi asosiy omil sifatida maydonga chiqdi.

Qiymatning kengaytirilgan shakli amal qilgan davrda ayrim tovar turlari, mehnat qurollari va mollar pulning vazifasini bajargan.

3. Qiymatning umumiy shakli: Bu sharoitda umumekvivalent sifatida e'tirof etilgan tovarlar eramizdan oldingi V - IV asrlarga qadar pul vazifasini bajardi. Qiymatning umumiy shakli davrida, ishlab chiqarish kengaydi va uning asosiy maqsadi barcha uchun zarur bo'lgan tovarni o'zlashtirishga qaratildi. Umumiy ekvivalent sifatida qo'y, don, jun, qimmatbaho buyum va boshqalar e'tirof etildi, lekin ular o'zining xossasidan kelib chiqqan holda uzoq vaqt umumekvivalent vazifasini bajarmadi. Chunki, ishlab chiqarishning rivojlanishi, kishilar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni tezlashtirdi, bu sharoitda umumekvivalent vazifasini bajaradigan tovarlarni olib yurish, saqlash va boshqa jarayonlar turli noqulaylik va qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Buning qiyinchiligi shunda ediki, masalan, dehqon ustiga kiyadigan kiyim olish uchun to'quvchiga donni taklif etsa, to'quvchiga don emas, balki qo'y zarurligini aytadi. Bunday paytda dehqon donni qo'yga almashtirish va shundan so'ng to'quvchiga qo'yni berib o'ziga zarur bo'lgan kiyimni olishi mumkin, ya'ni ayirboshlash jarayonlarida ishtirok etayotgan tomonlarning manfaatlari doimo ham bir - biriga mos kelmasligi oqibatida, turli qiyinchilik va ziddiyatli holatlar vujudga keldi. Buning natijasida, qiymatning pul shakli vujudga keldi.

4. Qiymatning pul shakli. Ayirboshlash munosabatlarining rivojlanishi, jahon bozorining vujudga kelishi, kumush va oltinning barcha tovarlar ichidan umumekvivalent vosita sifatida ajralib chiqishiga olib keldi. Ushbu metallarning tabiiy xossasi (yagona jismligi, qiymatining o'zgarmasligi, sifatining buzilmasligi) uzoq davr jamiyatda pul vazifasini bajarishiga xizmat qildi. Qimmatbaho metallar umumekvivalent sifatida muomalaga kiritilishining dastlabki davrida har xil quymat shakldan (sim, plastinka, yumaloq va boshqa shakllar) iborat edi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi va mehnat taqsimotining tobora takomillashib

borishi metall pullardan ma'lum shakl va miqdorga ega bo'lgan tangalarni zarb qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Tarixiy manbalarga ko'ra, dastlabki metall tangalar eramizdan avvalgi VII asrda Xitoy va Lidiya (Kichik Osiyo) davlatlarida zarb etilgan. Metall pullarning nominal qiymati haqiqatdagi qiymatiga teng bo'lib, noyob qimmatbaho metallardan tayyorlanadi va pulning barcha funksiyalarini bajaradi. E'tiborli jihati shundaki, muomalada haqiqiy pullar ayirboshlash vositasi vazifasini bajargan davrda iqtisodiyotda pul muomalasi avtomatik ravishda tartibga solinadi. Natijada, iqtisodiyotda pulning qadrsizlanishi, baholarning o'sishi va inflatsiya holati kuzatilmaydi. Chunki qimmatbaho metallarning muomalada ortiqchalik holatining vujudga kelishi, ularni jamg'arma va boylik sifatida saqlashga yo'naltirilishi orqali bartaraf etiladi. Agar, muomalaga qo'shimcha ayirboshlash qiymati zarur bo'lsa, ular qiymat o'lchovi, muomala va to'lov vositasi sifatida qaytadan muomalaga chiqariladi. Oltinning muomalada amal qilishi XX asming 30 - 70 yillarida bekor qilindi, ya'ni oltin demonitizatsiyasi yuz berdi. Oltin ayirboshlash vositasi sifatida muomaladan chiqarilishining dastlabki davrida avval muomala va to'lov vositasi funksiyasini, 1975-yildan so'ng esa jahon puli funksiyasini to'xtatdi. Ushbu vazifalarni ichki va jahon bozoriga oltinning o'rniga kirib kelgan qog'oz va kredit pullar egalladi.

5. Qiymatning qog'oz - pul shakli. Dastlabki qog'oz pullarni muomalaga chiqarilishi taxminan X asrning oxiri XI asrning boshlariga to'g'ri keladi. Shu davrdan boshlab, muomaladagi oltin va kumush pullar o'rnini qog'oz pullar egallay boshladi. Muomalada oltin va kumush amal qilgan sharoitda ular bilan parallel ravishda to'lov vositasi sifatida qog'oz pullarni kirib kelishining sabablari sifatida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

- qimmatbaho metallarni olib yurish, saqlash va xavfsizligini ta'minlash yuzasidan muammoli holatlarning vujudga kelishi;

- oltin va kumush muomalada qo'ldan-qo'lga o'tishi natijasida yedirilib, o'zining dastlabki hajmi va xossasini yo'qotishi;
- qimmatbaho metallar zebu ziynat va boylik timsolida muomaladan chiqib ketishi;
- iqtisodiy taraqqiyotning yuqori darajada rivojlanishi natijasida tovar va xizmatlar massasining qimmatbaho metallar (oltin, kumush) massasiga nisbatan shiddat bilan ortib borishi.

Dastlab muomalaga chiqarilgan qog'oz pullarning asosi oltin bilan ta'minlangan bo'lib, ushbu pullar bilan birgalikda oltin tangalar ham muomalada ishtirok etgan. Qog'oz pullar mustaqil qiymatga ega bo'lmasdan, ular davlatning qonuniy hujjatlari asosida mamlakatda to'lov va muomala vositasi rolini bajaradi. Shuning uchun qog'oz pullarning qiymati o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, u mamlakat ichki bozorida chet el valutasiga bo'lgan talab va taklif, milliy iqtisodiyotning barqarorligi hamda ijtimoiy iqtisodiy holatlar ta'sirida o'zgarib turadi. Bu uning sotib olish qobiliyatining mustahkamligi, inflatsiya darajasi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki: pul qiymati qancha yuqori bo'lsa shuncha inson ehtiyoji va hayot kelajagi uchun shuncha yaxshi bo'lishiga zamin yaratadi. Oddiygina misol qilin aytadigan bo'lsak kreditga ko'proq qiymatdagi pul mablag'larini qo'yadigan bo'lsak kreditdan (omonat) keladigan foyda ham ko'proq bo'ladi. Buning uchun qo'limizda qancha katta qiymat bo'lsa uni to'g'ri sohamizga investitsiya qila olishimizda bo'ladi. Yuqorida takidlab o'tgan barcha ma'lumotlarimiz judayam tushunarli va aniq bo'ldi deb o'yliman. Pulning vaqt qiymati deganda mavzuning sarlavhasining o'zidanoq biz buni ma'nosini tushunib yetishimiz kerak. Pul bir joyda ko'p vaqt mobaynida turmaydi va ko'paymaydi, uni

qaysidir soha yoki ishga pul tikib investitsiya qiladigan bo'lsakgina u harakatga kiradi va vaqtlar kesimida aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Otabek Nazirov, Kapital bozorni rivojlantirish agent ligasi direktori.
<https://kun.uz/news/2020/11/29/sukuk-ozbekiston-bozoridagi-yangi-moliyaviy-instrument-otabek-nazirov-bilan-suhbat>
2. Antropov V.V. Jahon iqtisodiyotida islom moliyasi: hozirgi tendentsiyalar va istiqbollari. Islom moliyasining paydo bo'lish sabablari // Iqtisodiy jurnal. 2017. No 48.b. 5777;
3. Gafurova G.T. Islomiy moliya tizimida sukuk // ASTU axborotnomasi. Iqtisodiyot. 2018. №2. Bilan. 90-94;
4. Mokina L.S. Islomiy qimmatli qog'ozlar investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbai sifatida va ularni Rossiya moliya bozorida joylashtirish istiqbollari // Rossiya tadbirkorlik jurnali. 2017. 18-jild. 22-son. Bilan. 3429-3446;
5. Trofimova O. G'arbiy Evropada musulmonlar va islom // Mirovaya ekonomika I mezhdunarodnye otnosheniya. 2019 yil. № 10.